

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHNING TEKNOLOGIK ASOSI
ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ
THE TECHNOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING
IN FUTURE PEDAGOGUES**

Abdujabborov Abduxalim Abdug‘appor o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: *Maqolada analitik tafakkur, uni rivojlantirishning texnologik asosi tahlil qilingan hamda tashkil etish bosqishlari va pedagogik jihatlari asoslangan.*

Аннотация: В статье анализируется аналитическое мышление, технологическая основа его развития, на нем базируются организационные этапы и педагогические аспекты.

Abstract: *The article analyzes the analytical thinking, the technological basis of its development, and the organizational steps and pedagogical aspects are based on it.*

Kalit so‘zlar: *analitik tafakkur, falsafiy va pedagogik asos, metodologik yondashuv, psixogen, event texnologiyalari, integrativ yondashuv.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, философско-педагогические основы, методологический подход, психогенные, событийные технологии, интегративный подход.*

Key words: *analytical thinking, philosophical and pedagogical basis, methodological approach, psychogenic, event technologies, integrative approach.*

KIRISH. Mamlakatimizda salohiyatlari oliy ta’lim muasasalariga va ularda yetishib chiqadigan yangicha dunyoqarashga ega raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi globallashuv sharoitida teran tafakkurga va kuchli ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tarbiyalash har bir jamiyat barqaror rivojlanishining muhim garovidir. Shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning samradorligini baholash va mavjud holatdagi kamchiliklarni aniqlash orqali yangicha yondashuvlarni olib kirish, modernizatsiyalash ishlarini amalga oshirish muhim pedagogik talablardandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish modelni ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi. Modelning mazkur turi bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonini boshqarish vositalarini izlab topish, shuningdek, V.A.Slasteninning fikricha, model subyekti sifatida talabalarning tayyorgarlik darajasining boshlang‘ich va yakuniy holati o‘rtasidagi farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi. Bizning tadqiqotimizda modellashtirish obyekti sifatida bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish

jarayoni, predmetini esa, ularda analitik tafakkurni rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bunday imkoniyatlar kontekstli va loyihibiy ta'lim texnologiyalari asosida rivojlanadi. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglarning ta'lim olishdagi ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari tubdan o'zgarib ketadi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda asosiy e'tibor ularning ilmiy-pedagogik ongini shakllantirish va yangicha fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini tasnifiy belgilari o'quv tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlar jarayonida talabalar dunyoqarashi, fikrashi va tafakkurini insonparvarlashtirish g'oyalari bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash quyidagilarda namoyon bo'ladi: suhbatlar jarayonida ilmiy muammolarga yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash; ular bilan ilmiy hamkorlik qilish; kelajakda egallaydigan sohalari yuzasidan to'g'ri tanlovnim amalga oshirishlariga ko'maklashish; ular ko'tarib chiqqan g'oyalarni ma'qullash, tahlil qilish, noto'g'ri jihatlarini asoslab ko'rsatish; bo'lajak pedagoglar tomonidan amalga oshirilgan kichik ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy ahamiyatini asoslashlarida ko'maklashish; bo'lajak pedagoglarga o'z qarorlari va qabul qilgan yechimlarini asoslashlari uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish; bo'lajak pedagoglar orasida vujudga kelgan ziddiyatlarni oqilona bartaraf etish kabilar. Aslida oliy ta'lim o'rganuvchisi analitik tafakkurning tarkibiy qismilari - analiz-sintez qilish, tanqidiy yondashuv, kreativlikni uzuksiz jarayonning oliy ta'limgacha bo'lgan davrida egallagan bo'lishi zarur.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda tanqidiy va tahliliy ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega. Analitik tahlil – o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganishdan iborat. Bo'lajak pedagog voqeahodisaning mohiyatini chuqr anglashi, u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning ichki tarkibiy qismlariga kirib borishi zarur. Bu esa to'rganilayotgan obektini alohida tarkibiy qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga hizmat qiluvchi oltita sifat ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- 1) Motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagen kasbiga bo'lgan yehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi);
- 2) Intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi);
- 3) Irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilish va tashabbuskorlik xislatlari);
- 4) Amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalar);

5) Hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirilishi (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi);

6) O‘z-o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga yerishish vositalarini tanlashdagi yerkinlik, vijdoniylik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonch, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi).

Bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkuri deganda yangi bilimlarni o‘zlashtirish maqsadida xilma-xil tur va shakldagi axborotlarni analitik-sintetik qayta ishlash jarayonida mavjud bilim, ko‘nikma va shaxsiy tajribasini qo‘llay olish qobiliyati tushuniladi. Shuningdek, o‘z navbatida analitik ko‘nikmalarini metodik jihatdan faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslanishni taqozo etadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan analitik tafakurni rivojlantirishning uch komponentini ajratib ko‘rsatish mumkin: vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir.

Vositali komponent axborot bilan ishslashning sodda texnologiyalari bilan ishslashni talab etadi: axborotlarni izlash va to‘plash, saqlash, qayta ishslash, taqdim etish, axborotni tarqatish va axborot xavfsizligini ta’minlash.

Amaliy komponent analitik faoliyatni amalga oshirish metod va vositalarini tanlashda bo‘lajak pedagoglarga erkinlik va mustaqillikni taqdim etadi.

Mustaqil izlanishga doir komponent mustaqil ravishda muammoni qo‘yish, muammoni hal etish bo‘yicha analitik faoliyatni amalga oshirish muddatlarini belgilash, axborotlarni izlash jarayonida to‘plangan materiallarni tahlil qilish metodlarini aniqlashtirish va tanlash bo‘yicha butun bor salohiyatini ishga solishni talab etadi.

Bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda qator metodik shart-sharoitlarni talab etadi.

Birinchi metodik shart – bo‘lajak pedagoglarning faoliyat texnologiyasini o‘rgatish. YA’ni, muammoni qo‘yish, hal etish, amalga oshirish kabi qaror qabul qilish bosqichlarini aniqlashtirishda vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir darajalarga asoslanishni talab etadi.

Ikkinci metodik shart – o‘quv jarayoniga talabalarni axborotlarni idrok etishda individual xususiyatlarni hisobga olish, tahlil etish (tabaqalashgan kognitiv uslub) va umumlashtirish (integral kognitiv uslub)ni talab etuvchi tabaqa lashtirilgan amaliy topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish.

Uchinchi metodik shart – o‘quv jarayonida maxsus axborot-tahliliy tizimlar, dasturiy vositalardan foydalanish.

Tadqiqot ishini olib borishda bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishni “Voqealar rivoji texnologiyasi” asosida takomillashtirishga harakat qildik. Ma’lumki, “Voqealar rivoji texnologiyasi” bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda turlicha yondashuvlar, voqealar va hodisalar, yangi g‘oyalar va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanishning, ta’sirchanligini oshirishga, kompitensiyaviyligini

ta'minlashda muhim ahamiyatga ega sanaladi. Mazkur texnologiya bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidagi turli yondashuv va munosabatlar bo'yicha bir - biriga bog'langan voqealarini tizimli tarzda yetkazib berish uchun zanjir vazifasini bajarishga qaratilgandir. Mazkur jarayonni ahamiyati va zaruriyatini inobatga olib, analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan voqealar rivoji texnologiyasini ishlab chiqdik.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning har biri o'z maqsadiga va xususiyatiga ega bo'lib, ular voqealar turlarining majmui bilan tavsiflanadi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida turli yondashuvlar asosida voqe-hodisani tahlil qilishi, umumlashtirishi, induktiv va deduktiv xulosa chiqarishi, taqqoslashi, aniqlik kiritishi, voqe - hodisalarga shunchaki emas, tanqidiy yondashishi, ijodiy va analitik fikr yuritishi talabalarning emotnsinal ta'sirchanligini oshiradi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Voqealar rivoji texnologiyasining ahamiyatli tomoni shunaki, u voqealar rivojida talabalarda tashabbuskorlik, tanqidiy yondashish, emotsiyonallik, kommunikativlik, kreativlik, innovatsion fikrlash, tashkilotchanik va liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Voqealar rivojida talabalarda tashabbuskorlik, tirishqoqlik, faollik, mohirlik, pishiqlik va tanqidiy yondashish orqali o'z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'ya bilishi, ularni amalga oshirish yo'lidagi muammolar yechimini topa olishi, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo'lgan usul hamda vositalarni qo'llashi analitik fikrlovchining voqe - hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda voqealar rivoji texnologiyasidan foydalanish bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi.

1. Analitik fikrlashning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari (turli xil vositalar bilan axborot bankini shakllantirish) haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tarqatish orqali tadqiq etish.

2. "Voqealar rivoji texnologiyasi" ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar jamoasini birlashtirish va ularni bir maqsadga yo'naltirish orqali o'zaro munosabatlar, do'stlik, o'rtoqlik rishtalarini yanada mustahkamlashga erishish.

3. Mazkur texnologiya emotsiya va his - tuyg'ular orqali o'qitishni emas, talabalarning faqat aqliy qobiliyatiga tayanish asosidagina ta'lim berish samaradorligini asoslaydi. Demak voqealar rivoji talabalarni o'zлari ko'rgan, eshitgan va bevosita ishtirot etgan, minosabatga kirishgan jarayonlar, voqe - hodisalarga o'z fikr va qarashlari, mulohazalarini ilgari surganda yoki yoritib berganda, tushintirganda ular albatta voqealar rivojiga murojaat qiladilar. Mazkur jarayon bo'lajak pedagoglarda mustaqil qarash, innovatsion fikrlash, kreativ yondashish, kommunikativlik va liderlik qobiliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda talaba quyidagicha mushohadaga asoslanadi, ya'ni bunda natijaviylik hamma vaqt ham yuzaga chiqmaydi, chunki bu imkoniyatning mahsuli, imkoniyat esa insonga hamma vaqt ham berilavermaydi degan qarash bilan belgilanadi.

Kontekstli ta'lism texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning kasbiyfaoliyatga yo'naltirilganligi bo'lib, buni quyidagi omillar ta'minlaydi:

o'quv materialining mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi masalalarini hal etishga yo'naltirilganligi;

amaliy vazifalarning laboratoriya mashg'ulotlarida amalga oshirilishi;

bo'lajak pedagoglar tomonidan kasbiy bilimlarning optimal-individual dastur asosida o'zlashtirilishi;

mutaxassisning mustaqil faoliyat yuritishiga yordam beruvchi analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

bo'lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy sifatini shakllantirish orqali o'z-o'zini anglashi uchun sharoitlarning yaratilganligi: o'z ustida ishslash uchun sharoitlarning mavjudligi.

XULOSA. Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishdagi samarali yo'llardan biri sifatida kontekstli ta'lism texnologiyasi hisoblanadi. Bu texnologiya bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U integrativ ko'rinishda bo'lib, turli ta'lism texnologiyalari, xususan, muammoli, loyihali, moduli, masofaviy ta'lism texnologiyalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa qilganda bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik jarayonni modellashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki to'g'ri va samarali ishlab chiqlgan ta'lism modeli ta'lism sifati va samaradorligi uchun hizmat qiladi. Shuningdek, modelni shakllantirayotganda eng samarali bo'lgan ta'lism texnologiyalarini joriy etish ham umumiyl maqsadga erishishdagi muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кинелев В.Г. Университетское образование: его настоящее и будущее / В.Г. Кинелев // ZMagister. 1995. № 3. С. 1–9.
2. Когнитивный подход: Монография. Отв. ред. Лекторский В.А. М. Канон, Реабилитация, 2008. –С. 464.
3. Национальная модель и программа по подготовке кадров-достижение и результат независимого Узбекистана.-Ташкент:Маърифат-Мададкор, 2001.–С.174-189.
4. Орехов А.М. Интеллектуальная собственность. Опыт социально-философского и социально-теоретического исследования. – М.: Либроком, 2009. –С. 224.
5. Хакимов Н.Х. Узбекистан: стратегические направления и перспективы развития. Монография. – Тошкент: 2017. –С. 262.